

ONA SHAXSI VA ONALIK ROLINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Amanullayeva Umida Botirjon qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası
“Ijtimoiy psixologiya” yo'nalishi I bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18184425>

Annotatsiya. Ayol shaxsi – onaning psixologik xususiyatlari va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar. Onalik nafaqat biologik, balki ijtimoiy va psixologik yetukligini belgilovchi holatdir. Farzandlar va ularning tarbiyasiga ham eng katta ta'sir ko'rsatuvchi shaxs – albatta ona.

Kalit so'zlar: Onalik – ijtimoiy rol, ona psixologik xususiyatlari, tarbiyaga ta'sir etuvchi muhit, pila muhiti, ona va bola o'rtasidagi bog'liqlik, psixosomatika.

Аннотация. Личность женщины — психологические особенности матери и социально-психологические факторы, влияющие на их формирование. Материнство является не только биологическим, но и состоянием, определяющим социальную и психологическую зрелость женщины. Наибольшее влияние на детей и их воспитание, безусловно, оказывает мать.

Ключевые слова: Материнство — социальная роль, психологические особенности матери, среда, влияющая на воспитание, семейная среда, связь между матерью и ребёнком, психосоматика.

Abstract. A woman's personality encompasses the psychological characteristics of a mother and the socio-psychological factors that influence their formation. Motherhood is not only a biological condition, but also a state that determines a woman's social and psychological maturity. Undoubtedly, the mother is the individual who has the greatest influence on children and their upbringing.

Key words: Motherhood as a social role, psychological characteristics of the mother, environment influencing upbringing, family environment, mother-child relationship, psychosomatics.

Psixologiyada onalik faqatgina tug'ish emas, balki mas'uliyat, empatiya, tarbiyaviy munosabatlar tizimi. Onalik psixologiyasi zamonaviy fan sohalari ichida eng murakkab va hali yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlardan biridir.¹ Ona shaxsi — nafaqat biologik, balki ijtimoiy va psixologik rolni o'zida mujassamlashtirgan shaxsdir.

Psixologik nuqtai nazardan, ona shaxsi individual xususiyatlar, emosional barqarorlik, moslashuvchanlik va motivatsion tayyorgarlik bilan tavsiflanadi.² Shaxsning bu xususiyatlari ona rolini idrok etish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Onaning psixologik xususiyatlari faqat individual xususiyatlarni emas, balki ona-bola munosabatini va bolaning psixologik rivojlanishini ham bevosita belgilaydi.³

63''¹ Филиппова Г. Г. Психология материнства: учебное пособие. — М.: Издательство Института психотерапии, 2002. — 240 с.

² Куликов Л. В., Малёнова А. Ю., Потапова Ю. В. Субъективная картина материнства в российских и зарубежных исследованиях // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. — 2020. — № 4. — С. 135–167. DOI: 10.11621/vsp.2020.04.07.

Bolalarning ta'lim va tarbiya olishi uning eng yaqin muhitidan boshlanadi. Ta'lim olamida bolalarga eng yaqin uchta muhit mavjud: (1) oila muhiti, (2) maktab muhiti va (3) jamoa muhiti.⁴

Bola tarbiyasi — bu sizning o'zingizni aks ettiradigan oyna: unda sizning eng yaxshi va eng yomon tomonlaringiz, hayotingizdagi eng yorqin lahzalar va eng qo'rqinchli tajribalaringiz aks etadi.⁵ Bundan ko'rinib turibdiki, farzandlarda har qanday xulq, shaxsiyat, ota yoki onalik roli ham avvalo o'z oilasidan boshlanadi. Xalqimizda bejiz “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan gap yo'q emas.

So'nggi yillarda psixosomatik yondashuv doirasida bolalar kasalliklarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Psixosomatik kasalliklar — bu organizmdagi jismoniy buzilishlar bo'lib, ularning kelib chiqishida psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Bolalik davrida bunday kasalliklarning shakllanishida ona shaxsining psixologik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bola hayotining dastlabki bosqichlarida onaga kuchli emotsional bog'langan bo'ladi.⁶ Ota-onalar farzand tarbiyasini bola tug'ilgandan keyin emas, balki ona qornidayoq boshlashi lozim. Donishmand haqidagi rivoyatda ham bolaning barkamol shakllanishi erta davrdan, ya'ni homiladorlik jarayonidan boshlangan tarbiya bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Shaxsning rivojlanishiga ijtimoiy muhit, irsiyat va oila tarbiyasi muhim ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarning erkin rivojlanishi va so'z erkinligi davlat tomonidan ham kafolatlangan bo'lib, bu bola jamiyatda erkin muloqot qilish va muammolarni mustaqil hal etish huquqiga ega ekanini anglatadi. Ilmiy bahslarda biologik yo'nalish tarafdorlari shaxs rivojlanishida irsiyatni yetakchi omil deb hisoblab, qobiliyat va aqliy xususiyatlar nasldan-naslga o'tishini ta'kidlaydilar. Jumladan, Torndayk shaxsning ongiy va intellektual sifatleri irsiy xususiyatlarga bog'liq ekanini qayd etadi.⁷

Xulosa. Onalik bu shunchaki farzandni dunyoga keltirishgina emas, balki, farzandning chiroyli tarbiyalanishiga, komil inson bo'lib yetishishi uchun javobgar bo'luvchi shaxs. Avvalo ota-onalar o'zi ma'naviy va psixologik yetuk bo'lsalar, farzand albatta shu xususiyatlarni o'zida shakllantiradi. Negaki, bola eshitganini emas, ko'rganini qiladi. Inson o'ziga juft tanlar ekan, bo'lajak farzandimning onasi, yoki otasi deya bu jihatdan ham e'tiborli bo'lishi lozim. Chunki farzand tarbiyasi unga bo'lg'usi ona yoki ota tanlashdan boshlanadi.

³ Booth A.T., Macdonald J., Youssef G. Contextual Stress and Maternal Sensitivity: A Meta-Analytic Review of Stress Associations with the Maternal Behavior Q-Sort in Observational Studies. arXiv Preprint, 2019.

⁴ Umarov T.M. Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlari va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish. // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo'qon universiteti, 2023. – B. 480–482.

⁵ Стиффелман С. Осознанное родительство... М.: Эксмо, 2020. — 320 с. ISBN 978-5-04-092876-7.

⁶ 1. Smirnova S. V., Zalevskiy G. V. Psixologicheskie osobennosti materi kak faktor formirovaniya psixosomaticheskogo zabolevaniya rebenka (na primere bronxialnoy astmy) // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Psixologiya. 2009. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-osobennosti-materi-kak-faktor-formirovaniya-psihosomaticheskogo-zabolevaniya-rebenka-na-primere-bronxialnoy-astmy> (murojaat sanasi: 31.12.2025).

⁷ 1. Bahridinov N. J., Butunboyeva G. Bola shaxsini rivojlanishida ta'sir etuvchi omillar // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot: ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. 2021. URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7523891> (murojaat sanasi: 01.01.2026).

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar:

1. Bahridinova N. J., Butunboyeva G. Bola shaxsini rivojlanishida ta'sir etuvchi omillar // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot: ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. — 2021. — URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7523891> (murojaat sanasi: 01.01.2026).
2. Booth A. T., Macdonald J., Youssef G. Contextual Stress and Maternal Sensitivity: A Meta-Analytic Review of Stress Associations with the Maternal Behavior Q-Sort in Observational Studies // arXiv Preprint. — 2019.
3. Smirnova S. V., Zalevskiy G. V. Psixologicheskie osobennosti materi kak faktor formirovaniya psixosomaticheskogo zabolevaniya rebenka (na primere bronxialnoy astmy) // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Psixologiya. — 2009. — № 3. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-osobennosti-materi-kak-faktor-formirovaniya-psihosomaticheskogo-zabolevaniya-rebenka-na-primere-bronhialnoy-astmy> (murojaat sanasi: 31.12.2025).
4. Umarov T. M. Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlari va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Qo'qon: Qo'qon universiteti, 2023. — B. 480–482.
5. Куликов Л. В., Малёнова А. Ю., Потапова Ю. В. Субъективная картина материнства в российских и зарубежных исследованиях // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. — 2020. — № 4. — С. 135–167. DOI: 10.11621/vsp.2020.04.07.
6. Стиффелман С. Осознанное родительство. — М: Эксмо, 2020. — 320 с. ISBN 978-5-04-092876-7.
7. Филиппова Г. Г. Психология материнства: учебное пособие. — М: Издательство Института психотерапии, 2002. — 240 с.